

**Muqaddas OQMAMATOVA,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*E-mail: cleverdiplommat90@mail.ru*

*Tel: (94) 777 63 77*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti, filol.fan.nomzodi Jumayev F.O. taqrizi asosida*

## SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS (IN THE EXAMPLE OF TOGAY MURAD'S TRANSLATION)

Annotation

In this article, the translation of the phraseological units in the translation of Ernest Seton – Thompson's stories by the talented writer Togay Murad in a semantically unique style, and the translator's skill in using words in the translation of the phraseological units, as well as some subtle aspects in the translation of the work of art language, that is, it is analyzed on the example of an artistic text in English, Russian and Uzbek languages.

In the analysis, the skill of the creator, his demandingness of words and the ability to feel the meaning of words are specially noted.

**Key words:** Color, lexical unit, phraseological unit, mentality, image, character, psychological state, context, shade, synonym, artistic skill, originality.

## СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ (НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВОДА ТОГАЯ МУРАДА)

Аннотация

В данной статье рассматривается перевод фразеологизмов в переводе рассказов Эрнеста Сетона – Томпсона талантливым писателем Тогаем Мурадом в семантически уникальном стиле, а также мастерство переводчика в использовании слов при переводе фразеологизмов, а также некоторых тонких аспекты перевода художественного произведения на язык, то есть анализируются на примере художественного текста на английском, русском и узбекском языках.

В анализе особо отмечается мастерство творца, его требовательность к словам и умение чувствовать смысл слов.

**Ключевые слова:** Цвет, лексическая единица, оттенка, фразеологизм, менталитет, образ, характер, психологическое состояние, контекст, синоним, художественное мастерство, оригинальность.

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI (TOG'AY MUROD TARJIMASI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada iste'dodli adib Tog'ay Murodning Ernest Seton – Tompson hikoyalarining tarjimasida frazeologik birliklarning semantik jihatdan o'ziga xos uslubda qilingan tarjimasi va frazeologik birliklar tarjimasida tarjimonning so'z qo'llash mahorati, shuningdek, badiiy asar tarjimasidagi ayrim nozik jihatlar uch til, ya'ni ingliz, rus va o'zbek tillaridagi badiiy matn misolida tahlil qilinadi.

Tahlilda ijodkor mahorati, uning so'zga bo'lgan talabchanligi va so'z zalvorini his qilish ko'nikmasi alohida qayd etiladi.

**Kalit so'zlar:** Kolorit, leksik birlik, ottenka, frazeologik birlik, mentalitet, obraz, personaj, psixologik holat, kontekst, sinonim, badiiy mahorat, aslyat.

Milliy – madaniy leksik birliklarning ma'no ko'lami mazkur xalqning madaniyati, hayoti, dunyoqarashining in'ikosi hisoblanadi. Ayniqsa, har millatning milliy—madaniy hayoti, tili, ma'no ottenkasining eng yorqin chizgilari, asosan, frazeologik birliklarda aks etadi. Ularda milliy kolorit noziklik bilan singdirilganligi yaqqol seziladi. V.A.Maslovning fikriga ko'ra, "...tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi mujassamlashgan". [1. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. -М.: Academia, 2004. -204 с.] Frazeologik birliklar barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek va ingliz tillarida keng qo'llanilib, ular ma'no jihatdan tarjimada mutloq yoki qisman bir-biriga muvofiq keladi.

Quyida jahon bolalar adabiyotining buyuk namoyondasi Ernest Seton – Tompson asarlari misolida mazkur til birliklarining qo'llanishi va ularning tarjimadagi murakkabliklari borasida fikrlashamiz.

Bu tarjimalar O'zbekiston Xalq yozuvchisi, iste'dodli adib Tog'ay Murod qalamiga mansub bo'lib, ushbu asar ilk bora ingliz tilidan rus tiliga N.Chikovskiy tomonidan tarjima qilingan. Keyinchalik rus tilidan o'zbek tiliga o'g'irilgan. Biz tahlil jarayonida asarning ingliz tili va rus tillaridagi nashri bilan muqoyasa qilishga harakat qilamiz.

Ernest Seton – Tompson asarlari ma'juzlarga asoslangan, teran insoniy tuyg'ularni tarannum etsa-da, ularda obrazlarning ruhiy kechinmalari alohida tasvir yo'siniga, yo'lga, an'analariga ega. Ular hayot ziddiyatlari bilan kurashuvchan, matonatli va isyonkorlardir. Shuning uchun asarlarda qo'llangan frazeologik birliklar ham ana shunday jihatlarni ochib berishga xizmat qiladi.

"Ta'bi tirriq bo'lgan galachilar o'z omadsizliklari aybdoridan o'ch olishni ko'ngillariga tugib qo'yib, holdan toygan otlarida uylariga jo'nadi." [2. Maktab adabiyoti xrestomatiyasi. 7-sinf, VIII jild; T:2016, B:64]

Yuqoridagi kontekstda "ta'bi tirriq bo'lgan" frazeologik birligi "O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati" da quyidagicha izohlanadi: "kayfiyati yomonlashdi, xafa bo'ldi". [3. B.Mengliyev va boshqalar. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. Yangi asr avlodi. T:2007; B:29]

"Ta'bi tirriq bo'lgan" frazeologik birligi o'zbek tilidagi "qovog'idan qor yog'moq", "ko'ngli xira bo'lmoq", "o'z yog'iga o'zi qovurilmoq", "qovog'ini uymoq", "tabiati tirriq bo'lmoq", "ta'bi xira", "ta'bi namozshom", "tabiatini xira qilmoq", "ko'ngli sinmoq" kabi iboralar bilan sinonimlik hosil qiladi.

Shuningdek, "holdan toygan" frazeologik birligi esa "toliqqan, darmonsizlangan" degan ma'nolarni anglatadi.

Asarning ingliz tilidagi matnida esa mazkur frazeologik birliklar quyidagicha ifodalangan: "The cattlemen on their jaded ponies set out for home with the poor satisfaction of vowing vengeance for their failure on the superb cause of it." [4. <https://en.m.wikisource.org>]

Ingliz tilidagi hikoyada "jaded" so'zi o'zbek tilida "charchagan" degan ma'noni anglatadi. Tarjimon bu so'zni o'zbek tiliga "holdan toygan" frazeologik birligi orqali hikoyada ma'nosini keng ochib bergan. Ingliz tilida "jaded" so'zi "burnt-out", "worn-out", "washed-out" frazeologik birliklari bilan sinonim hisoblanadi. Ammo yuqoridagi frazeologik birliklarning hammasi

ham kontekstda “jaded” soʻzi bilan almashinib ishlatilmaydi. Chunki bularning maʼno ottenkalarini turli xil. Ingliz tilidagi “tired”, “exhausted”, “weary” soʻzlari ham “charchagan” degan maʼnoni anglatgani bilan ular oʻrtasida maʼno biroz farq qiladi. “Tired” – charchagan, “exhausted” – nihoyatda charchagan (biror narsa bajarishga quvvati yoʻq), “weary” – juda charchagan (qattiq mehnat yoki faoliyat tufayli) kabi. Shulardan “burnt-out”, “worn-out” frazeologik birliklari “exhausted” soʻzi bilan, “washed-out” frazeologik birligi esa “tired” hamda “weary” soʻzlari maʼnosiga teng hisoblanadi. Tarjimon “jaded” soʻzini oʻzbek tilida “holdan toygan” frazeologik birligi orqali ifodalab kelgani, uning ingliz tilidagi “charchagan (hafsalasi pir boʻlgandan soʻng ishtiyoqi yoʻqolgan)” degan maʼnosini aniq ifodalab bergan.

Shuni ham taʼkidlab oʻtish kerakki, bu tarjima aynan ingliz tilidan emas, rus tili orqali oʻzbek tiliga oʻgirilgan. Shu sababli oʻzbek tilidagi kontekstni rus tilidagi tarjima bilan ham qiyoslaymiz: “Раздосадованные скотоводы отправились домой на своих заморенных лошадах, поклявшись отомстить виновнику их неудачи.” [5. Сетон-Томпсон Эрнест. Мустанг-иноходец. Домино. Холдинг «Лабиринт», М:2006, С:48] Rus tilidagi “заморенных лошадах”, yaʼni “oʻlik holdagi otlar” oʻzbek tiliga “holdan toygan otlar” birikmasi deya rus tilidan oʻzbek tiliga oʻgirilgan. Bundan koʻrinib turibdiki, rus tilidagi maʼnoni ochib berishda oʻzbek tilidagi “holdan toygan otlar” birikmasi toʻgʻri tanlangan.

Biz oʻzbek tilida “holdan toygan” maʼnosini anglatuvchi quyidagi frazeologik birliklarni ham koʻrishimiz mumkin: ona suti ogʻziga kelmoq, tinka-madori qurimoq. Lekin yuqoridagi frazeologik birikmalarning hamma ekvivalenti ham kontekstda almashinib qoʻllana olmaydi. Demak, aslida tarjimani aslyatidan qilish – nozik va murakkab jarayon. Tarjimadan tarjimada esa aslyatdagi maʼno ancha zaiflashib qolishi kuzatiladi.

“Taʼbi tirriq boʻlgan” frazeologik birligi esa aslyatda, yaʼni ingliz tilida hech qanday birlik bilan ifodalanmagan, ammo bu birikmaning koʻplab ingliz tilidagi iboralari mavjudligini koʻrishimiz mumkin: “face like a wet weekend”, “down in the mouth”, “feel blue”, “to have the blues”, “reduce to tears”, “cry one’s eyes”, “down in the dumps”, “broken-heated”, “a heavy heart”, “take something hard”.

“Taʼbi tirriq boʻlgan galachilar” birikmasi rus tilidagi “раздосадованные скотоводы” birikmasi soʻzma-soʻz tarjima qilinadigan boʻlsa, “norozni chorvadorlar” degan maʼnoni anglatadi. Rus tilida “недовольный, сердитый, хмурый, нервный, суровый” kabi sinonimlari mavjud. Oʻzbek tilida esa umumiy maʼnoda bitta “xafalik” maʼnosini “taʼbi xira boʻlmoq”, “koʻngli gʻash boʻlmoq” kabi frazeologik sinonimlari biroz degan maʼnoda qoʻllanilsa, undan yuqoriroq daraja uchun “dili siyoh”, “avzoyi buzuq boʻlmoq” iboralari mavjud. Eng yuqori bosqich maʼnosida esa “bagʻri qon” iborasi ishlatiladi. [6. Qodirova M. Oʻzbek tilshunosligida frazeologizmlarning oʻrganilish jarayoni. Science and innovation. UIF-2022. 8.2 ISSN:2181-3337. B:1618] Yuqoridagi rus tilidagi sinonimlar tarjimada “раздосадованные” soʻzlari bilan almashtirib foydalanganda maʼno kontekstda oʻzgarmaydi, lekin “taʼbi tirriq boʻlmoq” birikmasining sinonimlari orasida maʼno darajalari biroz farqli ekanligini koʻrishimiz mumkin.

“Barcha tashvishlar sababchisi boʻlmish aygʻir esa hamon yetib boʻlmas dovonligicha qolaverdi.” [2. Maktab adabiyoti xrestomatiyasi. 7-sinf, VIII jild; T:2016, B:71]

Yuqoridagi frazeologik birlik ham “cheksiz, ushalmagan orzu, amalga oshirish qiyin” degan maʼnolarni anglatadi.

Mazkur frazeologik birlikning ingliz tilidagi ekvivalentini rus va oʻzbek tillari bilan solishtirib koʻramiz: “But the one who was the prize of all the hunt seemed just as far as ever out of reach.” [7. <https://en.m.wikisource.org>.]

Aslyatda “as far as ever out of reach” birikmasi “inaccessible, out of the way, remote, unattainable, unobtainable, unreachable” soʻz va frazemalariga sinonim hisoblanib, oʻzbek tilidagi tarjimada qoʻllanilgan “yetib boʻlmas dovon” iborasi maʼnosiga teng hisoblanadi. Holbuki, oʻzbek tilidagi tarjima rus tilidan qilinganligini hisobga olib, rus tilidagi tarjimani ham qiyoslab koʻramiz: “А жеребец, который был целью всех трудов, оставался недосягаемым попрежнему.” [8. <https://www.labirint.ru>]

Bundan koʻrishimiz mumkinki, “недосягаемым” soʻzi esa “недостижимый, несбыточный, неосуществимый” soʻzlariga maʼno jihatdan yaqin hisoblanib, aslyatdagi “as far as ever out of reach” maʼnosini toʻliq ochib bergan. Shuningdek, rus va oʻzbek tillaridagi tarjimada ingliz tilidagi iborani aynan ochib bergan soʻz va frazemalar qoʻllangan.

Quyida yana bir misol tahlilini koʻrib oʻtamiz: “Dongʻi ketgan yoʻrgʻani juda-juda koʻrgim keldi, ertasiga Jayron bulogʻiga borib, hafsalam pir boʻldi, sababi, u yerda yoʻrgʻaning ham, galaning ham daragi yoʻq ekan.” [2. Maktab adabiyoti xrestomatiyasi. 7-sinf, VIII jild; T:2016, B:65]

“Hafsalasi pir boʻlmoq”, “daragi yoʻq” iboralarni aslyatdagi kontekstda koʻrib oʻtamiz: “I was full of curiosity to see the famous three-year-old, and was not a little disappointed on the second day when we came to the prairie on Antelope Springs and saw no sign of the Pacer or his band”. [7. <https://en.m.wikisource.org>.]

“To be a little disappointed” hamda “no sign of” iboralarning rus tilidagi tarjimada berilishini ham koʻrishimiz mumkin: “Мне страшно хотелось увидеть этого знаменитого мустанга, и я был несколько разочарован, когда оказалось, что у источника Антилопы, куда мы пришли на другой день, нет ни мустанга, ни его табуна. [9. <https://dzen.ru>]

Yuqoridagi tahlil qilingan barcha frazeologik birliklarni jadval misolida ham koʻrishimiz mumkin:

Oʻzbek tilida:	Ingliz tilida:	Rus tilida:
“Taʼbi tirriq boʻlgan” Sinonimlari: koʻngli gʻash boʻlmoq dili siyoh avzoyi buzuq boʻlmoq bagʻri qon qovogʻidan qor yogʻmoq koʻngli xira boʻlmoq oʻz yogʻiga oʻzi qovurilmoq qovogʻini uymoq tabiati tirriq boʻlmoq taʼbi xira taʼbi namozshom tabiatini xira qilmoq koʻngli sinmoq “holdan toygan”	face like a wet weekend down in the mouth feel blue to have the blues reduce to tears cry one’s eyes down in the dumps broken-heated a heavy heart take something hard	раздосадованные недовольный сердитый хмурый нервный Суровый
“holdan toygan”	Jaded	Заморенных

Sinonimlari: ona suti og'ziga kelmoq tinka-madori qurimoq	burnt-out worn-out washed-out tired exhausted weary	
“yetib bo'lmas dovon”	as far as ever out of reach inaccessible out of the way remote unattainable unobtainable unreachable	Недосягаемый недостижимый несбыточный неосуществимый
“hafsalasi pir bo'lmoq”	To be a little disappointed	несколько разочарован
“daragi yo'q”	no sign of	нет ни

Tog'ay Murod – mohir tarjimon. Yozuvchi iboralarni tanlashda bevosita personajlarning ruhiy holatidan kelib chiqib yondoshganligi tarjimonning so'z qo'llash mahoratidan darak beradi.

Tarjimon frazeologik birliklarni qo'llashda, tarjima qilishda badiiy tasvir jihatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Tarjima garchi ikkinchi tildan, ya'ni rus tilidan amalga oshirilgan bo'lsa-da, asarning tub g'oyasi ijodkor mahorati orqaligina mukammal saqlanib qolingan.

Tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki, tarjimani san'at darajasiga ko'tarish uchun, avvalo, adabiyotni sevish, til bilish ko'nikmalariga tayanibgina qolmasdan, tug'ma iste'dod bo'lishi ham muhim ekanligini chuqur anglab yetmog'imiz zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. -М.: Academia, 2004.
2. Maktab adabiyoti xrestomatiyasi. 7-sinf, VIII jild; T:2016.
3. B.Mengliyev va boshqalar. O'zbek tili iboralarning o'quv izohli lug'ati. Yangi asr avlodi. T:2007.
4. <https://en.m.wikisource.org>
5. Сетон-Томпсон Эрнест. Мустанг-иноходец. Домино. Холдинг «Лабиринт», М:2006.
6. Qodirova M. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o'rganilish jarayoni. Science and innovation. UIF-2022. 8.2 ISSN:2181-3337.
7. <https://en.m.wikisource.org>.
8. <https://www.labyrinth.ru>
9. <https://dzen.ru>